10. Egamberdiev E.; Makhkamov A.; Rakhimjonov B.; Khusanov D.; Akmalova G.; Mirzakhmedova M.; Rahmonberdiev G. Effectiveness of cleaning of sunflower oil with filter material made from composition of organic and inorganic fibers. 3rd International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering, ICECAE 2022Virtual, Online13 October 2022до 16 October 2022Код 187394, DOI 10.1088/1755-1315/1142/1/012050
11. M. Mirzakhmedova., D. Tukhtaboeva., E. Egamberdiev., G. Akmalova. Study of paper technology on the basis of reed cellulose. “Harvard educational and scientific review”, 2022. 149.
12. E.A. Egamberdiev., Y.T. Ergashev., Kh.Kh. Khaydullaev., G.Y. Akmalova., G.R. Rakhmonberdiev. The effect of chitosan on the surface properties of cellulose-based paper obtained from the stem of flaxseed. “Technical science and innovation”, 2022. 27.
13. Egamberdiev E.A., Makhkamov A.R., Rakhmonberdiev G.R. Obtaining wrapping paper used in furniture wrapping and quality delivery and determining its quality indicators // Tashkent state technical university named after Islam Karimov Technical science and innovation–Tashkent,– No. 2(12). 2022.– P. 33–39.
14. Egamberdiev E.A., Norboyev S.K. Extraction of cellulose nanocrystals from secondary paper waste and their use in paper production // Tashkent state technical university named after Islam Karimov Technical science and innovation –Tashkent,– No. 3(13). 2022.– P. 215–222.
15. Soatboev, K., Daddahodjaev, A., & Egamberdiev, E. (2023). Creation of mixed polyfunctional catalysts for hydration of acetylene in vapor phase. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 430–433. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3167>
16. Zokirbekov, J. K., Aliev, B. A., & Egamberdiev, E. A. (2023). Modified mineral sorbents for waste water treatment. Innovative Development in Educational Activities, 2(10), 155–157. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1345>
17. Zokirbekov, J. K., Aliev, B., & Egamberdiev, E. (2023). Effect of temperature on sorbents. Innovative Development in Educational Activities, 2(10), 158–161. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1346>

18. Zokirova , Z. Q. qizi, Egamberdiyev, E. A., & Sattarkulov , L. A. o‘g‘li. (2023). Installation of new types of basalt fiber filters in industry. SCHOLAR, 1(11), 122–125. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/3281>
19. Zokirova Zilola Qaxramon qizi, Egamberdiyev Elmurod Abduqodirovich, & Sattarkulov Lazizbek Abror o‘g‘li. (2023). Use of cellulose based filters in the oil and gas industry. Ta’limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati, 1(1), 261–264. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/konferensiya/article/view/3388>
20. S.S. Aliev, E.A. Egamberdiev, G.Yu. Akmalova, G.U. Ilkhamov. Analysis of physical-mechanical properties of new type of wood-polymer composite materials. *Vol. 3 No. 1 (2023): Harvard Educational and Scientific Review*, 48-53
21. Turabdjanov , S., Egamberdiev, E., Iskandarov, A., & Zokirova, Z. (2023). Installation of new types of basalt fiber filters in industry. SCHOLAR, 1(10), 106–110. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/3109>
22. Rashidov Sh.A., Egamberdiev E.A., Turabdjanov S.M. Obtaining cellulose nanocrystals and their use in paper production. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 1.2 2023*, 3-8. <https://doi.org/10.29013/AJT-23-1.2-3-8>
23. E Egamberdiev, R Kholdarov, R Masharipov, O Muratkulov, G Akmalova, Ergashev Yo, M Mirzakhmedova. [Effect of flocculants on stability of paper materials](https://doi.org/10.29013/AJT-23-1.2-9-12) *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 1.2 2023*, 9-12. <https://doi.org/10.29013/AJT-23-1.2-9-12>
24. Egamberdiev Elmurod, Ergashev Yorkinjon, Mahkamov Adham, Umarova Muattar, Akmalova Guzal. [Obtaining oil filters from local fiber raw and its advantages](#). *Universum: технические науки 8-3 (101) 2022* – P. 49-54.
25. Egamberdiev Elmurod, Ergashev Yorqinjon, Khaydullayev Khurshid, Husanov Dilshod, Rahmonberdiev Gappor. [Obtaining paper samples using basalt fibers and studying the effect of natural glue obtained from chitosan on paper quality](#). *Universum: технические науки 4-13 (97) 2022* – P. 14-18.
26. Gulnoza Iskhakova Elmurod Egamberdiev, Jamshid Ziyadullaev. Obtaining thermal insulation materials containing basalt fiber and cellulose. *International scientific and practical conference modern views and research 2021/6*, 10-11
27. G‘.R.Rakhmonberdiev E.A.Egamberdiev, G.Yu.Akmalova, Yo.T.Ergashev, M.M.Shakirova. The influence of different natural fibers applied on the quality index of the paper. *American journal of research 2021/4*, 48-57
28. G.Akmalov S.Arslanov, E. Egamberdiev. Physiologically active polymers with anti tuberculosis activity. *International scientific and practical conference modern views and research 2021/2*, 48-50.

29. G.Rakhmanberdiev E. Egamberdiev, Yo.Ergashev. Obtaining a filter material based on basalt fiber used for the oil industry. International scientific practical conference modern views and research 2021/2, 63-65

30. Toyir Safarov, Elmurod Egamberdiev, Yorqin Ergashev. Study of the effect of binders on paper materials made based on mineral fibers. Internationales Deutsches Akademika Aachener, Germany 2021, 40-43

31. S.Arslanov, E. Egamberdiev, G.Akmalova. Physiologically active polymers with antituberculosis activity. Modern views and research - 2021, January-February, 2021: Egham. 48-50

32. E. Egamberdiev, Yo.Ergashev, G.Rakhmanberdiev. Obtaining a filter material based on basalt fiber used for the oil industry. Modern views and research - 2021, January-February, 2021: Egham. 63-65

33. Aliev S.S., Rakhmanberdiev G.R., Sharafatdinov B. Study physical and mechanical properties of wood-polymer composition materials made on the basis of local wood flours and polyvinylchloride // "Technical science and innovation", Tashkent State Technical University named after I.A. Karimov, Tashkent 2022, pp. 211-214.

34. Aliev S.S., Egamberdiev E.A., Akmalova G.Yu., Ilkhamov G.U. Analysis of physical-mechanical properties of new type of wood-polymer composite materials // Harvard Educational and Scientific Review. International Agency for Development of Culture, Education and Science. 0362-8027 47 Vol.3. Issue 3 Pages 48-53

35. Aliev S.S., Egamberdiev E.A., Juraev A.B., Ismatov M.N., Zokirova Z.Q. The Effect of Wood Fillers in Individual Conditions on Wood-Polymer Composites // "Technical science and innovation", Tashkent State Technical University named after I.A. Karimov, Tashkent 2023, pp. 208-213.

36. Aliev S.S., Egamberdiev E.A., Akmalova G.Yu. Obtaining environmentally friendly polymer composite material from local wood flour // Al-Farabi Kazakh National University NJSC Faculty of Biology and Biotechnology Department of Biodiversity and Bioresources Research Institute for Problems of Biology and Biotechnology Research Institute for Ecological Problems. Almaty, 2023, pp.168-171

СИСТЕМА ПОСЕЩАЕМОСТИ РАСПОЗНАВАНИЯ ЛИЦ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БИБЛИОТЕК PYTHON

¹ Yusupova Janar, ² Choponov Otajon,
³ Allayarov Shohzodbek, ⁴ Omonov Sardorbek

¹ Ассистент Ургенчского филиала ГАТУ имени Мухаммада ал-Хоразми

^{2,3,4} Студент Ургенчского филиала ГАТУ имени Мухаммада ал-Хоразми

***Аннотация:** Данная статья представляет исследование и разработку системы распознавания лиц на основе библиотек Python для эффективного контроля посещаемости. В статье представлен подробный обзор современных методов распознавания лиц и обоснование выбора Python как основного инструмента разработки. Авторы подробно описывают архитектуру системы, включая процесс сбора и подготовки данных, алгоритмы обучения и реализацию интерфейса пользователя. Библиотеки Python, такие как OpenCV, dlib и TensorFlow, используются для обработки изображений, детекции и распознавания лиц, а также для создания моделей машинного обучения и библиотеки для создания интерфейса, как Tkinter. Особое внимание уделяется вопросам безопасности и защите данных в контексте применения системы в образовательных учреждениях и офисных средах. Результаты экспериментов и оценка производительности представлены сравнительно с другими существующими решениями. Эта статья может служить руководством для специалистов в области разработки системы контроля посещаемости на основе технологии распознавания лиц с применением библиотек Python.*

***Ключевые слова:** Python, OpenCV, dlib, TensorFlow, Tkinter, детекция, машинное обучение,*

Введение

На сегодняшний день безопасность имеет важную роль в обществе и её роль растет с каждым днём, как и эволюция технологии. Сейчас повсюду информация и данные, но среди них есть защищенные и незащищенные, а все хотят чтобы их данные были в безопасности.

Ранние методы аутентификации и идентификации с помощью PIN-кодов и паролей знатно устарели и занимали больше времени, но потом случилось прорыв в области кибербезопасности, появилась биометрическая защита данных. Которая обеспечивает уникальность, надежную защиту и экономия времени.

Язык программирования Python

Python - это высокоуровневый интерпретируемый язык программирования общего назначения, который был разработан Гвидо ван Россумом и впервые выпущен в 1991 году. Он стал популярным благодаря своей простоте, читаемости и гибкости, что делает его идеальным выбором для разнообразных задач, от веб-разработки и научных вычислений до автоматизации искусственного интеллекта[1].

Особенности Python:

1. Читаемость и простота кода
2. Широкое использования
3. Кроссплатформенность
4. Расширяемость

Благодаря расширяемости Python в нем существует много полезных и удобных библиотек. О некоторых из них мы поговорим в этой статье.

OpenCV

OpenCV (Open Source Computer Vision Library) - это библиотека программного обеспечения для компьютерного зрения и машинного обучения с открытым исходным кодом. OpenCV был создан для обеспечения общей инфраструктуры для приложений компьютерного зрения и ускорения

использования машинного восприятия в коммерческих продуктах. Являясь лицензионным продуктом Apache 2, OpenCV упрощает компаниям использование и модификацию кода.

Библиотека содержит более 2500 оптимизированных алгоритмов, которые включают в себя полный набор как классических, так и самых современных алгоритмов компьютерного зрения и машинного обучения. Эти алгоритмы могут быть использованы для обнаружения и распознавания лиц, идентификации объектов, классификации действий человека в видео, отслеживания перемещений камеры, отслеживания движущихся объектов, извлечения 3D-моделей объектов, создания 3D-облаков точек со стереокамер, объединения изображений для получения изображения всей сцены в высоком разрешении, поиска похожих изображений из база данных изображений, удаление эффекта красных глаз с изображений, сделанных с помощью вспышки, отслеживание движений глаз, распознавание пейзажа и установка маркеров для наложения на него дополненной реальности и т.д. Библиотека широко используется компаниями, исследовательскими группами и государственными органами.

Dlib

Dlib - это библиотека машинного обучения и компьютерного зрения, разработанная специально для решения задач обработки изображений, распознавания объектов и детекции лиц. Она предоставляет реализацию различных алгоритмов, таких как:

- Детекция лиц и ключевых точек лица.
- Обнаружение объектов с помощью метода "Histogram of Oriented Gradients" (HOG).
- Распознавание лиц с использованием "Deep Metric Learning" (LFW) и других методов.
- Трекинг объектов и лиц.

Dlib также включает в себя инструменты для работы с изображениями и структурами данных, что делает ее полезным инструментом для различных задач компьютерного зрения[2].

TensorFlow

TensorFlow - это мощный открытый фреймворк для машинного обучения и глубокого обучения, разработанный компанией Google. Он предоставляет множество инструментов и API для создания, обучения и развертывания различных типов нейронных сетей. TensorFlow позволяет решать разнообразные задачи машинного обучения, такие как:

- Классификация и регрессия.
- Обработка естественного языка (NLP).
- Обнаружение объектов и семантическая сегментация в изображениях.
- Генерация контента искусственным интеллектом (например, в генеративно-сопоставительных сетях - GAN).

TensorFlow предоставляет высокоуровневые абстракции для удобства работы с нейронными сетями, а также низкоуровневые возможности для тонкой настройки и оптимизации моделей. Он используется в различных областях, от исследований и образования до промышленного применения.

Tkinter

Tkinter (Tcl/Tk Interface) - это стандартная библиотека Python, предоставляющая интерфейс к библиотеке GUI (графический пользовательский интерфейс) Tk, написанной на языке программирования Tcl (Tool Command Language). Tkinter позволяет создавать простые и интуитивно понятные графические приложения с помощью различных виджетов, таких как кнопки, окна, текстовые поля, полосы прокрутки и другие элементы интерфейса.

Этот фреймворк предоставляет пользователям Python простой способ создания элементов графического интерфейса с использованием виджетов, найденных в Tk toolkit. Виджеты Tk можно использовать для создания кнопок, меню, полей данных и т.д. в приложении на Python. После создания эти графические элементы могут быть связаны с функциями, функциональностью,

методами, данными или даже другими виджетами или взаимодействовать с ними.

Сбор данных и тренировка модели

В системе присутствует камера подключенная к компьютеру. Она снимает определенную количество снимков и отправляет в базу, там эти снимки используется для тренировки модели чтобы распознать лицо пользователя и идентифицировать его.




Рисунок 1 UML диаграмма работы системы

Заключение

Мы уверены, что предоставленные нами информации будут полезны в будущем. Область машинного обучения продолжает активно развиваться, и спрос на специалистов, обладающих навыками работы с ними, по-прежнему остается высоким.

Однако, мы осознаем, что наш путь в изучении машинного обучения только начинается, и нам предстоит продолжать расширять свои знания и углубляться в эту захватывающую область. Мы с нетерпением ожидаем дальнейших исследований и применения машинного обучения в реальных проектах, чтобы продолжать наше стремление к инновациям и развитию в области машинного обучения.

Источники

1. <https://habr.com/ru/articles/301096/>
2. Python и машинное обучение, Себастьян Рашка, 356 стр, ISBN 9785041961336, 5041961336

DASTURLASHNI O‘RGANUVCHILAR UCHUN ONLAYN HAKAM TIZIMI

¹Yusupova Janar, ²Choponov Otajon,

³Allayarov Shohzodbek, ⁴Omonov Sardorbek

¹ Muhammada al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali o‘qituvchisi

^{2,3,4} Muhammada al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali talabasi

Dasturlash fanini o‘qitishda talabalarga algoritmlar va ularning dasturini tuzish jarayoni murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Fanda berilgan topshiriqlarni qiyinligi talabalarning fanni o‘zlashtirish samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonini samarali tashkil qila olmasligi va mustaqil tayyorlanish vaqtini to‘g‘ri taqsimlay olmasligi talabalarda yetarlicha qiyinchilik tug‘diradi[1].


Hozirgi vaqtda ko‘p sonidagi dasturlash tillarini mavjudligi, ular yordamida katta hajmdagi masalalarni samarali yechish imkonini beradi. Biroq ixtiyoriy dasturlash tili yordamida dasturiy ta’minot yaratish algoritmlashtirish tamoyillarini yaxshi bilishni, algoritm tuzish orqali dastur ishlash jarayonini, kompyuterda ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonini tushinishni talab qiladi[2].

Dasturlash fanini o‘rgatishdan maqsad - talabalarning ilmiy- texnikaviy dunyoqarashini shakllantirish va zamonaviy texnika vositalari bilan tanishish hamda undan foydalanishga zamin yaratishdan iborat[3]. Shuningdek, algoritm tuzish tamoyillarini o‘rganish, kursni yetarlicha o‘zlashtirishlarini ta’minlash va amaliyotga tadbiiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish, algoritmlash usullarini amaliy masalalarni hal qilishga tadbiiq etish, algoritmlarning sifatini oshirish, ixchamlash yo‘llari va uslublarini o‘rgatishdan iboratdir[4].

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialida professor-o‘qituvchi va talabari tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda tajriba-sinovdan o‘tkazilayotgan “Online hakam”

(<https://algo.ubtuit.uz/>) tizimi talabalarga dasturlashni o'rgatishda yuqori samara bermoqda[4].

Tizimning dastlabki sahifasi «Bosh sahifa», «Algoritmlar», «Masalalar», «Contest», «Urinishlar», «Natijalar bo'limlaridan iborat bo'lib, ular quyidagicha vazifalarni amalga oshirishga mo'ljallangan(1-rasm):



1-rasm. "Online hakam" (<https://algo.ubtuit.uz/>) tizimining umumiy ko'rinishi

«Bosh sahifa» bo'limida talabalar uchun dasturlash bo'yicha yangiliklar, e'lonlar beriladi. Shuningdek, bu bo'limda o'tkazilgan nazorat (musobaqa shaklida) natijalari, talabalarining dasturlash masalalarini yechish bo'yicha monitoring natijalari, har bir o'tkazilgan musobaqadan keyin muallif yechimlari berib boriladi.

«Algoritmlar» bu bo'limda dasturchilar uchun zarur bo'lgan algoritmlar beriladi. Ushbu bo'limda istalgan turdagi murakkab algoritmlarni ham izohlar va sodda misollar orqali oson tushunib olishlari mumkin bo'ladi.

«Masalalar» bo'limida talabalarga oraliq va yakuniy nazoratga mustaqil tayyorlanishlari uchun o'tilgan mavzular bo'yicha har bir fan kesimida masalalar to'plami beriladi, shuningdek olimpiadaga tayyorlanuvchi talabalar uchun ham maxsus masalalar to'plami ham ishlab chiqilgan.


«Contest» bo'limida tizimning masalalar bazasidan foydalanib yoki yangi masalalar tuzish orqali ishtirokchilar o'rtasida musobaqa o'tkazish mumkin. Ushbu

musobaqalar ma'lum vaqt oralig'ida va belgilangan sanada onlayn tarzda o'tkaziladi, musobaqa o'tkaziladigan sanalar tizim yangiliklar bo'limida e'lon qilib boriladi.

«Urinishlar» bo'limida joriy holat, ya'ni joriy vaqtda masalalarni yechayotgan talabalar va ularni masalani to'g'ri yoki noto'g'ri yechayotganligi, urinishlari soni ko'rsatiladi (2-rasm).


«Natijalar» bo'limida talabaning masalalarni yechish soni bo'yicha olgan o'rni belgilanadi. Bu bo'limda talabalarni familiya, ismi bo'yicha qidiruv tizimi ham mavjud. Agar siz biror guruhni tanlasangiz, faqat shu guruh talabalarining reytingi chiqadi (3-rasm).

Talabalar yechgan masalaning matnini tizimga tekshirish uchun jo'natadilar. Talaba dastlab masalaning tartib raqami tanlaydi, keyin dasturlash tillaridan (C, C++, Python) birini tanlaydi. Masalaning dastur matni tanlangan dasturlash tilida bo'lishi shart (4-rasm).




ID	Foto	Ism	Ball	Til	Rezultat
769549		Botir_Nematilloev	0368	Python 3.7	Accepted
769548		kholmatov	0021	Python 3.7	Runtime error #1
769547		Botir_Nematilloev	0157	Python 3.7	Accepted
769546		kholmatov	0021	Python 3.7	Runtime error #1
769545		SaidmurodNarzullayev	0368	Python 3.7	Accepted
769544		kholmatov	0021	Python 3.7	Runtime error #1
769543		kholmatov	0021	Python 3.7	Runtime error #1
769542		SaidmurodNarzullayev	0361	GNU G++17 7.3.0	Accepted
769541		kholmatov	0021	GNU G++17 7.3.0	Compilation error

2-rasm. «Urinishlar» bo'limi



#	Username	Study	Qabul qilingan
1	Xudayshukur Egamov	TATU Urganch filiali Kompyuter injiniringi 913-14	895
2	Muradjon Davronov	TATU Urganch filiali Kompyuter injiniringi 912-20	893
3	Nazarbek Boltabayev	TATU Urganch filiali Kompyuter injiniringi 943-17	881
4	Mansurbek	Ma'lumot to'liq emas	800
5	Qudrat Ibadullayev	TATU Urganch filiali Kompyuter injiniringi 912-14	797

3-rasm. "Natijalar" bo'limi



4-rasm. Masalani tekshirish uchun tizimga jo'natish

Tizimda talaba tomonidan dasturlashda yo'1 qo'yilgan xatoliklar quyidagi ko'rinishlarda berilishi mumkin:

1) Accepted - ma'lumot jo'natilgan dasturni barcha testlashdan muvaffaqiyatli ravishda o'tganligi haqida xabar beradi va siz jo'natgan dastur tizim tomonidan qabul qilinganligini bildiradi. 2) Wrong answer - ma'lumot jo'natilgan dasturni testlashdan o'tmaganligini anglatadi. Testlashni qaysi turidan o'tmaganligini "#" belgisidan keyin chiqadigan sondan bilish mumkin. Masalan: Wrong answer #5 degan xabar chiqsa,

dastur 5 – testlashdan o‘ta olmaganligini anglatadi. 3) Time limit exceeded - bunday ma’lumot jo‘natilgan dastur qo‘yilgan biror-bir testlashda vaqt chegarasi oshganligini bildiradi. Qaysi testlashda vaqt chegarasi oshganligini "#" belgisidan keyin chiqadigan sondan bilish mumkin. Masalan: Time Limit exceeded #5 bo‘lsa, 5 testlashda vaqt chegarasi oshganini bildiradi. 4) Compilation error - ma’lumoti jo‘natilgan dastur matni kompilyatsiya qilinganida chiqqan xatolik haqidadir. 5) Runtime error - ma’lumoti jo‘natilgan dasturning bajarilishi vaqtida uchraydigan xatolikni anglatadi, bunday xatoliklarga massiv elementlarini yo‘q indeksini chiqarish, massiv elementlari indeksini oshishi va shunga o‘xshash xatoliklar kiradi. Masalan: Runtime error #5 bo‘lsa 5 testlash bajarilishi vaqtida uchragan xatolikni bildiradi. 6) Memory limit - bunday ma’lumot jo‘natiladigan dasturga ajratilgan xotira chegarasidan oshganda ro‘y beradigan xatolik. 7) In queue - bunday ma’lumot jo‘natilgan dastur tekshirish uchun navbatga qo‘yilganligini anglatadi. 8) Running - bunday ma’lumot jo‘natilgan dastur tizim tomonidan tekshirilayotganligini anglatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu yaratilgan “Onlayn hakam” tizimi dasturi horizgi kunda 1200 dan ortiq masalani o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, qisqa muddat ichida butun respublika bo‘ylab 8000 dan ziyod dasturchi foydalanuvchilarga dasturlash va algoritmlash bo‘yicha bilimlarini yanada chuqurlashtirishlari uchun xizmat qilmoqda.

Dasturlash fanini o‘rgatishda bunday tizimlarning joriy qilinishi talabalarning fanni yaxshi o‘zlashtirishlari va ularning dasturlashga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishida katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- [1]. https://en.wikipedia.org/wiki/Competitive_programming.
- [2]. <https://en.wikipedia.org/wiki/Codeforces>
- [3]. http://code.wikia.com/wiki/Online_judge
- [4]. <http://algo.ubtuit.uz/index.php>

PLYONKA OSTIDAN SUG‘ORISH QUVURLARINI TASHLOVCHI QURILMA TAVSIFI

Maxmudova Maftuna Maxsud qizi

Qo‘chqorov Jurat Jalilovich

Qodirov Zayniddin Zaripovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

***Annotatsiya:** Maqolada bayon etilgan plyonka ostidan sug‘orish quvurlarini tashlovchi qurilma qishloq xo‘jalik ishlab chiqarilishida, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda resurstejamkor qurilma ekanligi va ularning ish texnologiyasi to‘plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish texnologiyasiga taa‘luqli.*

***Kalit so‘zlar:** qora plyonka, sug‘orish quvuri, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi, sug‘orish, tuproq, unumdorlik, qishloq xo‘jaligi, bug‘lanish, sho‘rlanish.*

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mavjud ekin yerlarini meliorativ holatini yaxshilash va undan yuqori hosil olish bevosida texnika va texnologiyalarga bog‘liq. Ushbu texnikalarda samarali va to‘g‘ri foydalanish, shu bilan birga ularning yangi turlarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb ilmiy yechimini kutayotgan masalalaridan biridir.


Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, suvni tejab foydalanish kabi ishlar tobora avj olmoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki yana bir dolzarb muammoga aylanib borayotgan yerlarni meliorativ holati buzilishi va sho‘rlanish darajasining oshib borishidir. Bu muammoni qisman oldini olish bu sifatli tekislashga bog‘liqdir.

Mulchalash deb, ekin yoki ko‘chat atrofidagi tuproq yuzasini turli materiallar bilan berkitishga aytiladi. To‘shama to‘shashdan maqsad ekin dalasidagi tuproqning

ustki qatlamida namlik, xavo va issiqlik rejimini ma'lum miqdorda doimiy bir xilda saqlashdan iboratdir.


Turli xil ekinlar va tuproqlar uchun turlicha to'shama materiali yaxshi natija beradi. Har doim mulcha to'shama begona o'tlarning o'sishiga to'sqinlik qiladi, tuproqning zichlanishini kamaytiradi va tuproq yuzasidagi bo'ladigan bug'lanishini kamaytiradi.

Plyonka ostidan tomchilatib sug'orish bo'yicha (T.Usmonov va boshqalar tomonidan chop qilingan "Sug'orish mashina va uskunalari" Toshkent 2008, S.Mamatov va boshqalar tomonidan chop qilingan "Suv tejoychi sug'orish texnologiyalari asoslari" Toshkent 2022 yil) mavjudi sholi yetishtirish uchun plastik plyonkalardan foydalanib ishlatishga asoslangan (Способ возделывания риса на грядах при поверхностном капельном поливе подмулчирующей пленкой. (RU 2775557 C1), u tuproqning suv, havo va issiqlik rejimiga ta'sir etadi bundan tashqari uskuna tuproqdagi biologik jarayonlarni tezlashtirib, ekinlarni ozuqa moddalari bilan ta'minlashini yaxshilaydi. Provard natijada o'simlikni rivojlanishi va pishib yetilishi tezlashadi va hosildorlik oshadi. begona o'tlarni o'sishni oldini oladi ba'zi bir zararkunandalarga ziyon yetkazadi. Mavjud ish uskunasi turli ishlarda ishlatish imkoniyati mavjud emas.




1-rasm. Plyonka ositidan sug'orish quvurlarini tashlovchi qurilmaning umumiy ko'rinishi

Qurilmaning asosiy vazifasi resurstejamkor plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllash maqsadida, bir vaqtning oʻzida sugʻorish quvurlarini hamda sugʻorish quvurlari ustidan plyonka toʻshashga moʻljallangan. Plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllashdan asosiy maqsad, bugʻlanishga sarf boʻlayotgan suv isrofgarchilikni keskin kamaytirish, qishloq xoʻjaligi ekinlarining suvga boʻlgan talabini vaqtida qondirish va ulardan ekologik toza hamda barqaror, sifatli mahsulotlar yetishtirishdan iborat.



2-rasm. Plyonka ostidan sugʻorish quvurlarini tashlovchi qurilmaning old tomondan koʻrinishi

Taklif etilayotgan texnik yechimning asosiy vazifasi resurstejamkor plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllash maqsadida, bir vaqtning oʻzida sugʻorish quvurlarini hamda sugʻorish quvurlari ustidan plyonka toʻshashga moʻljallangan. Plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllashdan asosiy maqsad, bugʻlanishga sarf boʻlayotgan suv isrofgarchilikni keskin kamaytirish, qishloq xoʻjaligi ekinlarining suvga boʻlgan talabini vaqtida qondirish va ulardan ekologik toza hamda barqaror, sifatli mahsulotlar yetishtirishdan iborat.



3-rasm. Plyonka ositidan sug'orish quvurlarini tashlovchi qurilmaning old tomondan ko'rinish sxemasi

Taklif etilayotgan plyonka ostidan tomchilatib sug'orish quvurlarini yotqizuvchi qurilma egiluvchan sug'orish quvurlari joylashgan g'altak, qora plyonka o'ralgan g'altak, asos rama, qora plyonka yo'naltirigich, sferik disklar, egiluvchan quvur, egiluvchan quvurlarni yo'naltiruvchi, ulagich, detallarni tutib turuvchi qulflardan tashkil topgan. Bu qurilma konstruksiyasi sug'orishdagi suv isrofgarchiligini keskin kamaytirish va qishloq xo'jaligi ekinlarining suvga bo'lgan ehtiyoji vaqtida qondiriladi hamda ekinlardan yuqori va barqaror hosil olishga erishiladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, sug'orilgan yerlarga suv tejoychi texnologiyalarni qo'llash ekinlarga o'z vaqtida sifatli ozuqalar borilishi va yuqori hosil olishga erishiladi. Shu bilan birgalikda sug'oriladigan suvlarni 50-60% ga tejalishiga olib keladi, bu esa o'z o'zidan ko'rinib turibdiki qishloq xo'jaligini rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Способ возделывания риса на грядах при поверхностном капельном поливе подмульчирующей пленкой. RU 2775557 C1.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi № PF-4533 sonli farmoni.
3. “Qishloq va suv xo‘jaligining zamonaviy muammolari” mavzusida ilmiy amaliy anjuman materialari II-qism. Toshkent 2013 yil
4. Kuchkarov J.J. Substantiation of the parameters of the disk levellers of the base: Abstract of the thesis. ... tech.fan.fail.doc.- Karshi, 2021.- 36 p.
5. Khasanov I S, Kuchkarov J J, Nuriddinov Kh 2020 IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1) 012174
6. Kuchqorov J, Musurmanov R, 2019 Int. J of Advanced Research in Science Engineering and Technology 10
7. Khasanov I S, Kuchkarov J J, Nuriddinov Kh 2020 IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1) 012174
8. Kuchkorov J.J., Musurmanov R K, Khasanov I S, 2019 International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology, 1

MOLIYA SOHASIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TA’LIM TIZIMI

Marjona Anvarovna Abduvasiyeva

Geologiya Fanlari Universiteti

abduvasiyevamarjona@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishdagi islohotlar hamda ulardan kutilayotgan moliyaviy natijalar tahlil qilingan. Sovet davridagi Oliy ta’lim va mustaqillik davridan keyingi Oliy ta’limdagi o‘zgarishlar keltirilgan va xulosalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Oliy ta’lim, ta’lim sohasidagi islohotlar, stipendiyalar, ta’limni moliyalashtirish*

HIGHER EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF FINANCE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Marjona Anvarovna Abduvasiyeva

University of Geological Sciences

abduvasiyevamarjona@gmail.com

***Abstract:** The article analyzes the reforms in the financing of the higher education system in Uzbekistan and the financial results expected from them. Higher education in the Soviet era and changes in higher education after independence are presented and conclusions are given.*

***Keywords:** Higher education, educational reforms, scholarships, education financing*

СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ОБЛАСТИ ФИНАНСОВ

Маржона Анваровна Абдувасиева

Университет геологических наук

abduvasiyevamarjona@gmail.com

***Аннотация:** В статье анализируется уровень помощи в финансировании уровня образования в Узбекистане и ожидаемый от него высокий уровень. Включено в высшее образование и изменения в высшем образовании в советское время и образование после обретения независимости.*

***Ключевые слова:** Высшее образование, восстановление образования, стипендии, финансирование образования.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar barcha yoshlarning ta’lim xizmatlaridan bir xilda foydalanishi, o‘qituvchilar malakasi va ta’limning yuqori sifatini ta’minlashga qaratilgan. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda tizimni rejalashtirish va moliyaviy ta’minlash masalalari islohotlar markazida turadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunida har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs fuqaroni shakllantirish nazarda tutilgan. Bunday natijaga erishish uchun ta’lim-tarbiya jarayonining uyg‘unligini ta’minlash, boshqaruv jarayonining qonuniyatlarini chuqur o‘rganish va bugungi kun talablariga javob bera oladigan barkamol yosh avlodni tarbiyalash usullarini tadqiq qilish lozim. Jamiki o‘zgarishlar, yangilanishlar bevosita ta’lim rivoji bilan bog‘liq. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidaganidek “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar,

Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhim sharoitlarni yaratishimiz kerak. Buning uchun, avvalambor, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.


Bugungi kunda zamonaviy jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamiyatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar zamirida Vatanimizni yanada taraqqiy ettirish, yoshlarni har jihatdan barkamol shaxs etib voyaga etkazish, sohalar uchun yuqori bilimga ega mutaxassislarni tayyorlashdek maqsadlar mujassamdir.

Oliy ta'lim tizimiga mustaqillik berish biz uchun katta o'zgarish bo'ldi desak ham bo'ladi. chunki Oliy ta'limidagi o'zgarishlar o'z-o'zini moliyalashtirishi Oliy ta'lim muassasalari bir-biridan kuchli bo'lishi uchun harakat qiladi degani.

Masalan: Har bitta Oliy ta'lim muassasalari to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini o'zi belgilashi, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilishi, o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratishni va hokazolarni misol qilib ko'rsata olamiz. Umumta'lim tizimida juda yuqori islohatlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Darhaqiqat yoshlarimizni bilimli savodli bo'lishi uchun va inson kapitaliga investitsiya kiritilayotganini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm 2022-yilda Oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha ostiqbolli rejalar.

O'zbekiston ta'lim sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Yaqin o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston hududida sanoqli ta'lim muassasalari bo'lib, ularning aksariyati talab darajasida bo'lmagan. Ularda yetishib chiqqan mutaxassislar mamlakat aholisining juda oz qismini tashkil etgan. Ba'zi hollarda odamlar savodsiz hatto oralaridan umumiy 11yillik ta'limni egallamaganlari ham bor edi. Bu sovet hukumatining chuqur o'ylangan nayrangi bo'lib, o'zbek xalqi uchun yod bo'lgan kommunistik mafkura bilan millat ongini zabt etishga harakat qilgan. Ammo ularning ko'zlagan rejasi amalga oshmadi, ozodlik ruhi ostida kamol topgan xalqimiz mustaqillik uchun kurash olib bordi va uzoq kutilgan kunga erishdi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab har bir sohaga ulkan e'tibor qaratildi shu bilan bir qatorda lim sohasida ham tub burilish yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil, 11-martdagi "Respublika oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga qabul qilishni takomillashitirish to'g'risida"gi PF-361-sonli farmoniga asosan, mamlakatimizda mavjud oliy o'quv yurtlariga qobiliyatli yoshlarni tanlab olish

tizmiga katta o'zgarishlar kiritildi. Dastlab respublikamizning 6 ta oliy ta'lim muassasasida test sinovi asosida o'qishga qabul qilish tajribadan o'tkazilgan bo'lib, oradan bir yil o'tib, bu ko'rsatkich 19 taga yetkazildi. 1994-yil 14-maydagi 258-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan Oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga abituriyentlar tanlash bo'yicha.

Respublika markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga aylantirildi. Davlat test markazi (DTM) asosiy vazifasi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish hisoblanadi. Mustaqillik yillaridan boshlab hozirgi yilgacha bo'lgan vaqt orasini tahlil qiladigan bo'lsak juda katta o'zgarishlar bo'lganini ko'rib hayron qolamiz. 1991-yildan hozirgi 2022-yilgacha mamlakatimizda ta'lim sohasida tub islohatlar amalga oshirildi. Bunga misol qilib men o'zimni universitetimni keltirishim mumkin. Men Geologiya Fanlari Universiteti talabasiman. Bu universitet 2020-yilda tashkil topgan bo'lib, unda yaratilgan imkoniyatlar xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan farq qilmaydi. Universitetimiz eng yaxshi texnika-texnologiyalar bilan jihozlangan va bu texnikalar biz yoshlar uchun chet el davlatlaridan keltirilgan. Bunday sharoitlar albatta yoshlarimizning kelajakda yetuk kadr va mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun yaratilgan. Malakali kadrlarni tayyorlash va ularni yetuk mutaxassis kadr qilib tayyorlashda oliy o'quv yurtlarining o'rni beqiyosdir.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi» 41-moddasida ta'kidlanganidek, «har kim bilim olish xuquqiga ega»

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllanirishini, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq (demokratik) fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 1997 yil 29 avgustda Prezident Islom Karimov Oliy Majlis X sessiyasida «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzuida nutq so'zladi. Shu sessiyada «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun qabul qilindi. U 5 bo'lim 34

moddadan iboart. Shuningdek, sessiyada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham qabul qilindi.

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta'lim to'g'risi»dagi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimida jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan holda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishda har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar ixtisosligini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: «Ta'lim to'g'risi»dagi Qonunni joriy etishni; yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hayotga joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'limotni ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini

attestasiyadan o'tkazishni va akkreditasiyalashni; yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.¹

Bugungi kunda birgina o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida turli soha va yo'nalishlar bo'yicha 840 mingga yaqin zamonaviy bilim va kasbni egallagan yuqori malakali kadrlar tayyorlanganligi bu sohada ijobiy ma'nodagi "portlash effekti" ro'y bera boshlaganidan dalolatdir. Oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlari hamda umumta'lim maktablari huzurida 1187 ta axborot-resurs markazlari mavjud bo'lib, ularda o'zbek, qoraqalpoq, rus va boshqa tillardagi 15mln nusxadan ortiq darslik, o'quv-uslubiy, badiiy, texnikaviy va ma'lumotnoma yo'sinidagi kitobi bo'lgan 15276 ta kutubxonani birlashtirgan.

Respublikadagi 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasasida 610 mingga yaqin kichkintoylar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.

Maktabgacha ta'lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog'chalari hamda «Bolalar bog'cha-maktab» majmui tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tillari, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etilgan.

Bugungi kunda respublikadagi 9672 ta umumta'lim maktablarida 6 mln.ga yaqin o'quvchi ta'lim olmoqda. Ana shu ta'lim maktablarida 450 ming nafar oliy (70-75 foiz) va o'rta maxsus (70-25 foiz) ma'lumotli o'qituvchilar ishlamoqda. 2012 yil da oliy ta'lim muassasalarini soni 64 ta bo'lib, bu ko'rsatkich bugungi kunga kelib 68 tani tashkil etadi. Unda taqsil oladigan yoshlar soni esa 261.3 ming kishini tashkil etadi. Oliy ta'lim tizimidan keyingi ta'lim tizimini rivojlantirish va o'qishga kiruvchi yoshlar sonini 5 barobarga oshirilishi ko'zda tutildi. Shuningdek 2021-yilda ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni o'tgan-yilga nisbatan 3 barobarga oshirilishi aytiladi. Bu islohotlar mamlakatimiz ta'lim tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonamiz.

2019-yil 1-dekabr kuniga qadar 2030-yilga qadar respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds

¹ https://vaqt.ucoz.com/publ/turli_mavzular

World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritishni, bunda mazkur oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Har yili 1-dekabrga qadar o‘tayotgan yil bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” bajarishi yakunlarini puxta o‘rganish asosida Konsepsiyani kelgusi yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” loyihasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;¹

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari, turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi: maktabgacha ta’lim; umumiy o‘rta ta’lim; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi; oliy ta’lim; oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta’lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

shaxs; davlat va jamiyat; uzluksiz ta’lim; fan; ishlab chiqarish.

Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga mavofiq quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – o‘tish davri bo‘lib, u 1997–2001 yillarni, 4 yilni o‘z ichiga oladi.
2. Ikkinchi bosqich – 2001–2005 yillarni o‘z ichiga oladi.
3. Uchinchi bosqich – 2005 va keyingi yillarni o‘z ichiga olishi belgilangan.

Xulosa va takliflar

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4545884#:~:text=O%E2%80%98>

Islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asl maqsadlarini ta'minlash, uning samaradorligiga erishishlik uchun nimalar qilmoq zarur? Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, ta'lim tizimini moliyalashtirish, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalarimni keltirib o'taman. Quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

-budget va avtonom tashkilotlarga kengroq vakolatlarni, jumladan moliyalashtirish va xarajatlarni boshqarish sohasida, berish orqali yangi turdagi budget muassasasiga o'tishni yakunlash;

- ta'lim muassasalari daromadlarining o'sishini ta'minlash;

- aholi jon boshiga moliyalashtirishning joriy qilingan moliyaviy mexanizmlari va mehnatga haq to'lashning yangi tizimini samaradorligini oshirish;

- qisqa muddatlarda ta'lim tizimi uchun kadrlar rahbarlar va menejerlarning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning tayyorlanishini ta'minlash;

Faqatgina yuqoridagi vazifalar kompleks yechilgan taqdirda, ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini beradi hamda barcha talabalarga yashash joyi, ijtimoiy, mulkiy holatidan qat'i nazar, zamonaviy ta'lim standartlariga javob beradigan va O'zbekiston hududlarining innovatsion ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanish talablariga mos keladigan yuqori sifatli ta'lim olish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil // <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
2. Батова Б.3. и др. Проблемы финансирования образования России//Фундаментальные исследования. 2016.-№5-3.-С.546-550 704 "SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL APRIL 2021/VOLUME 2 ISSUE 4
3. O'Imasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik-T.: TDIU. 2014
4. <https://yuz.uz/uz/news/o-nagrajdenii-grupp-rabotnikov-sfer-zdravooxraneniya-v-svyazi-s-dnem-meditsinskix-rabotnikov>
5. Malikov T., Haydarov N. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. T.: "Iqisod-moliya", 2007.
6. Nurmammedova B. va b. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish. "InfoCapitalGroup" 2013.
7. Raxmonov D. O'zbekiston ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSC) darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati T., 2018.

ДАРСҲОИ ҒАЙРИҚОЛАБИИ САВОДОМОЗИИ ЗАБОНИ МОДАРӢ ВА ХОНИШ

Саломов Анушервон Акрамович

Донишҷӯи донишгоҳи давлатии Самарқанд ба номи Шароф Рашидов

anushervon.salomov@mail.ru

Аннотатсия: Дар мақолаи мазкур аҳамияти истифодаи усулҳои ғайриқолабӣ дар раванди таълиқи дарси саводомӯзии забони модарӣ ва хониш дар синфҳои ибтидоӣ таъкид шудааст. Дар бораи истифодаи технологияҳои инноватсионӣ дар рушди қобилиятҳои эҷодӣ ва татбиқи онҳо дар раванди таълим маълумот дода шудааст.

Калимаҳои таърифи: дарс, метод, роҳу равиш, саводомӯзӣ, интерфаъл, тафаккури эҷодӣ, системаи таълим.

INTERACTIVE LESSONS IN MOTHER TONGUE AND READING LITERACY

Abstract: This article emphasizes the importance of using interactive methods in the process of organizing the lesson of mother tongue literacy and reading in primary classes. Information is given on the use of innovative technologies in the development of creative abilities and their application in the educational process.

Key words: lesson, method, approach, literacy, interactive, creative thinking, educational system.

Дар замони ҳозира системаҳои таълимии кишварҳои пешрафта, аз қабилҳои Фаронса, Шветсия, Итолиё ва Финландияро назар афканем, барои мукамал аз худ кардани забони модарии хонандагони синфҳои ибтидоӣ, инкишофи

тафаккури интиқодӣ ва қобилияти эҷодкории онҳо диққати махсус дода мешавад. Агар тамоми ислоҳоти соҳаи маорифи кишварамонро таҳлил кунем, пас ҳамаи онҳо тавачҷӯҳ ба насли наврас ва пойдевор барои оянда аст. Тавре ки Президенти кишварамон дар маърӯзаҳои худ таъкид карда буданд, «фарзандонамонро ҳамчун инсонҳои ватанпарвар, дорои тафаккури мустақил, дониши замонавӣ ва малакаи касбӣ тарбия намудан масъалаи аҳамиятнок мебошад».

Омӯзиши саводомӯзии забони модарӣ ва хониш ба чаҳор салоҳият: гӯш кардан, гуфтан, хондан ва навиштан ҳамчунин ба ташаккули саводомӯзии грамматикӣ тамаркуз мекунад. Мо бояд дар таълим вазифаи коммуникатсионии забонро дар мадди аввал қарор диҳем ва муносибати фаъолият, муносибати бошуурона ва муносибати танқидиро низ ба назар гирем. Истифодаи методҳои замонавӣ яке аз омилҳои зарурии баланд бардоштани сатҳи фикрронии мустақил ва инкишофдиҳии тафаккури эҷодии хонандагон мебошад.

Метод ва тарзҳои таълим чизи шахшуда набуда, доимо инкишофу такмил меёбанд. Хусусан дар шароити ҳозираи афзудани доираи маълумот комилан такмил додани тарзу усулҳо хеле муҳим аст. Раванди такмили методҳо бояд ба фаъол кунонидани шавқу ҳаваси маърифатҷӯии хонандагон, омӯзиши фаъол, инкишофи ҳаматарафаи онҳо нигаронда шавад. **Истифодаи методҳои замонавии таълим боиси самаранокии баланди ҷараёни таълим мегардад. Ин усулҳоро дар асоси вазифаи дидактикии ҳар як дарс интихоб кардан ба мақсад мувофиқ аст. Дар баробари нигоҳ доштани шакли анъанавии дарс, бояд гардонидани он бо усулҳои гуногун, ки фаъолияти хонандагонро тезтар мегардонанд, боиси баланд шудани сатҳи дониши онҳо мегардад. Инчунин тавачҷӯҳ ва шавқмандӣ ба истифодаи технологияҳои инноватсионӣ, технологияҳои педагогӣ ва иттилоотӣ дар раванди таълим рӯз то рӯз зиёд шуда истодааст, яке аз сабабҳои ин дар он аст, ки то имрӯз дар таълими анъанавӣ ба хонандагон танҳо дониши тайёр омӯзонида мешуданд, аммо**

технологияҳои муосир имкон медиҳад, ки онҳо дониши меомӯхташонро ҷустуҷӯ кунанд, мустақилона омӯхта таҳлил кунанд ва ҳатто хулоса бароранд.

Маълум аст, ки усули таълим як хел намеистад, тарзҳои нави методӣ доим дар инкишофанду усулҳои нав ба нави таълим ба вучуд омадан мегиранд. Таълими замони муосир тақозо мекунад, ки бештар дар рафти таълими фанҳо усулҳои фаъол ва интерактивиро истифода барем. Бо ёрии ин усулҳо омӯзгорон ба саволи кӯхнаи чиро таълим додан ва чӣ гуна таълим додан дар шароити олами зудтағйирёбанда ҷавоб меҷӯянд. Ин маънои онро дорад, ки муаллими замони муосир бояд ҷараёнеро ба роҳ монда тавонад, ки ба хонандагон барои «кашф»-и дониш ёрӣ расонад. Маҳз барои ҳамин таълим хонандаро бояд ба ҷустуҷӯ, тадқиқ ва ҳалли мушкилиҳои муҳими муҳити ўро ихотакарда ворид созад.

Метод аз калимаи юнонии “*metodos*” гирифта шудааст, ки он дар забони тоҷикӣ ба маъноҳои роҳ, тарз, равиши таҳқиқот, (аз нигоҳи назария), тарзи ноил шудан ба мақсад, иҷро намудани вазифаи мушаххас (аз нигоҳи амалия) қорбаст мешавад. Метод аслан дар натиҷаи фаъолияти амалии инсон ба вучуд омадааст. Ҳар як намуди фаъолият методи хоси худро дорад. Аз ҷумла, дар қори таълим як метод, дар қори тарбия дигар метод, дар қори илмӣ, истеҳсолӣ методҳои дигар ба қор бурда мешавад. Ин ба мақсад ва вазифа, намуд ва ба хусусияти фаъолият вобаста аст. Ҳар қадар ки фаъолият мураккаб бошад, ҳамон қадар методҳои он гуногун мешавад. Аз ҷумла, қори таълимӣ яке аз намудҳои мураккаби фаъолият ба шумор меравад. Аз ин рӯ, он як силсила методҳои гуногунро дарбар мегирад.

Методи таълим - тарзи қори омӯзгор ва донишомӯз, ки дар ҷараёни он донишомӯзон дониш, малакаву маҳорат ҳосил намуда, ҷаҳонбинӣ ва қобилиятшон ташаккул меёбад.

Дар аксар адабиётҳои педагогии то давраи истиқлол методи таълим ба таври зерин гурӯҳбандӣ гардидааст:

1. Методи шифоҳӣ - сӯҳбат, нақл, ҳикоя, лексия ва монанди инҳо.

2. Методи аёнӣ - усулҳои намоишдиҳӣ: нақша, таблитса, расм, тасвирҳо, таҷрибаҳо, объективҳои табиӣ, ва кинофилмҳо.

3. Методи амалӣ - усулҳои мушоҳида, супоришҳо, тадқиқотҳо, кор бо китоби дарсӣ, корҳои лабораторӣ ва амсоли инҳо.

Методҳои таълим дар охири асри XX ва ибтидои асри XXI ду номи умумиро молик гардид. Номи умумии якумӣ - “методҳои қолабӣ”, “методҳои анъанавӣ”; номи умумии дуюмӣ - “методҳои ғайриқолабӣ”, “методҳои ноанъанавӣ”, “методҳои интерактивӣ”. Методҳои баёни даҳонакӣ, кор бо китоб, мушоҳида, аналитикию синтетикӣ, индуксия, дедуксия, сӯҳбат, репродуктивӣ, кор аз рӯи расм, кор бо китоб, таълими дастурӣ, санчишу баҳогузорӣ ва ғайра **методҳои қолабӣ**; хучуми ақлӣ, арраи ажурӣ, кластер, пинборд, блис, мунозира, ҷойи худро ёб, кор бо зергурӯҳҳои хурд, меню, мувоҳида, ҳамдигаромӯзонӣ, зиг-заг, фикрронии танқидӣ, корҳои ба лойихагирӣ, тадқиқотӣ, мавқеъёбӣ, шаҷараи қарорҳо ва монанди инҳо **методҳои ғайриқолабӣ (интеркативӣ)** ба шумор мераванд.

Таълими замони муосир тақозо мекунад, ки бештар дар раванди таълими саводомӯзии забони модарӣ ва хониш, инчунин фанҳои дигар усулҳои интерактивӣ (ғайриқолабӣ)-ро истифода барем. Усули интерактивии таълим раванди азхудкунӣ ва эҷодкориро дар хонандагон метезонад ва натиҷаи он на танҳо дар омӯзиш, балки дар иштироки ҳалли масоили гуногун замина гузошта метавонад. Барои мисол, агар усул ва шаклҳои таълими интерактивӣ мақсаднок истифода бурда шаванд, самараҳои онро дар фаъолияти хонандагон, ба мисли ба даст овардани иттилоот, ҷасорати баёни андеша ва ба муаллим эътимод зоҳир кардан дидан мумкин аст. Таълими интерактивӣ тавачҷӯҳи иштирокчиёнро дар ҳалли масъалаи муҳокимашаванда бештар гардонда, онҳоро ба эҷодкорӣ ва ҷустуҷӯ водор месозад. Дар натиҷа ҳар як хонанда ба муваффақият ноил гашта, дар кори гурӯҳӣ ҳиссагузорӣ мекунад.

Дар китоби дарсӣ як қатор материалҳои дидактикӣ ба назар мерасад. Ба омӯзгор тавсия дода мешавад, ки чунин супоришҳоро бо усули хучуми ақлӣ,

муаммогузорӣ ташкил карда натиҷаҳои онро дар байни донишомӯзон бояд муҳокима намояд. Дар китоби дарсӣ матнҳое дохил карда шудааст, ки хусусияти тарбият намудани ҳисси ватанпарварӣ, табиатдӯстӣ, эъзоз намудани урфу одатҳои миллии халқамон ва ғайраро дар бар мегирад. Хуб мешуд, ки омӯзгор чунин матнҳоро бо фаъолияти амалӣ, озодфикрию озодандешӣ, ташаббускорӣ ва бо методҳои **интерфаъл: - хучуми ақлӣ, пинбард, инсерт, синквейн, кластер**, омӯзонаду бештар ба фикри мустақилонаи донишомӯзон диққатро нигаронад. Онҳоро дар таълими забони модарӣ ҳамчун шахси соҳибфикру фаъл, эҷодкор тарбия намояд. Бузургон беҳуданагуфтаанд, ки сифатнок ва эҷодкорона ташкил намудану гузаронидани дарс ба малакаю дониши омӯзгор вобаста аст. ҳаминро таъкид карданием, ки мувофиқи талаботи замон ва дар андозаҳои стандарти ҷаҳонӣ дарс гузаштан аз омӯзгор пеш аз ҳама чонбозӣ, эҷодкорӣ, ҷустуҷӯи шаклҳои усулҳои навро тақозо мекунад. Омӯзгорро лозим аст, ки аз навгониҳои соҳаи забоншиносӣ, дастовардҳои методистону педагогҳои пешқадам мунтазам огоҳ шуда равад. Дар ҳамин вақт вай вазифаи сермасъулияти дар пӯш гирифташиро сарбаландонаю сифатнок адо карда метавонад.

АДАБИЁТҲО:

1. Ш.М.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб ёшларимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент. “Ўзбекистон” 2017. – 136 бет.
2. С.Х.Хўҷақулов. Технологияи нави таълим ва методикаи адабиёти тоҷик. – Самарқанд 2014.
3. Т.Чориев, Ҷ.Эшонқулов. Методикаи таълими саводомӯзии забони модарӣ ва хониш (барои синфи 3). – Тошканд 2022.
4. М.Лутфуллоев. Асосҳои таълими ибтидоии забони модарӣ. – Душанбе 2007.

ОРОЛ БЎЙИ МИНТАҚАЛАРИДАГИ ТАРҚАЛГАН ОЧ ТУСЛИ СЎР ТУПРОҚЛАРНИНГ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ХОССАЛАРИ

Ибодулла Нурматов Алиқулович

Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти кичик илмий ходим

к/х.ф.ф.д., **Фарход Дониёрович Мамадиёров**

Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти, «Алмашлаб экиш ва тупроққа
ишлов бериш» лабараторияси мудир.

farkhod.mamadiyov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Орол бўйида тарқалган оч тусли сўр тупроқларининг қатламлар бўйича гумус миқдори, сувли сўрим таркибидаги сульфат ва хлор ионлари аниқланганлиги ҳақида фикр юритилган бўлиб, Орол бўйи экосистемасини ривожлантиришида худуднинг бир қисмини деҳқончиликга яроқли эканлиги акс эттирилган.

Калим сўзлар: *тупроқ, гумус, сувли сўрим, қуруқ қолдиқ, хлор, сульфат, корбанат, ион, она жинс, чанг заррачалари, физик лой.*

ABSTRACT

In this article, the amount of humus, sulfate and chlorine ions in the watery soil of the light-colored sour soils distributed on the coast of the island were determined, and it was reflected that a part of the territory is suitable for farming in the development of the ecosystem of the island.

Key words: *soil, humus, water absorption, dry residue, chlorine, sulfate, carbonate, ion, parent rock, dust particles, physical clay.*

КИРИШ

Мавзунинг долзарблиги. Ҳозирги кунда дунё аҳолисининг барқарор ўсиш тенденцияси туфайли, озиқ-овқат маҳсулотларига ҳамда хом ашёсига бўлган талабнинг ортиши кузатилмоқда. Бу, ўз навбатида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун ер ва сув ресурсларини топиш, уларни оқилона ва самарали етиштириш ҳамда ерларнинг унумдорлигини ошириш ва уларни муҳофаза қилиш заруриятини туғдиради. Сайёрамизда қишлоқ хўжалик экинларини етиштириш учун фойдаланиладиган майдонлари дунё ер фондининг 11% ни ташкил қилади, яйловлар ва ўтлоқлар эса ер фондининг 26% ни ташкил этади¹. Ҳозирда дунё аҳолиси 7,8 миллиардни ташкил қилгани ҳолда аҳоли жон бошига ўртача 0,23 гектар ер майдони тўғри келади², бу майдон, аҳоли сонини ошиши билан барқарор қисқариб боради. Шу сабабли, озиқ-овқат билан боғлиқ бўлган ҳолатни яхшилаш, озиқ-овқат хавфсизлигини ошириш ва тўйиб овқатланмаслик билан курашишда муваффақиятга эришиш учун қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш суръатларининг ўсиши аҳоли сонини ўсишидан устун бўлиши лозим. Бундай ҳолда, асосан мавжуд қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланиш керак. Ушбу ҳолатни яхшиланиши, ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминловчи барқарор жадаллашиш ҳисобига амалга ошириш мумкин.

Ҳозирги кунда аҳолини қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан таъминлаш концепцияси доирасида республикада ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш, тупроқ унумдорлигини прогноз қилиш, ошириш ва химоя қилиш бўйича кенг кўламли мажмуавий тадбирлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ 5853-сон "Ўзбекистон Республикасини 2020-2030 йилларда янада ривожлантириш стратегиялари" тўғрисидаги Фармонида қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари белгилаб берилган. Унда асосий устувор вазифаларидан бири мамлакат аҳолисининг озиқ-овқат хавфсизлигини

¹<http://ru.wikipedia.org/wiki/Земельные> ресурси;

²<http://kto.guru/geografia/154-sero-burye-pochvy.html>

таъминлашдир деб кўрсатилган³. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 январдаги “Чорвачилик тармоғини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4576-сон қарорида эса, чорвачиликни янада ривожлантириш вазифалари ушбу соҳада озуқа базасини таъминлашда ҳал қилувчи омил бўлиб хизмат қилмоқда. Шу муносабат билан чўл зонасидаги тупроқ хусусиятларини ўрганиш бўйича тадқиқотлар олиб бориш, чунончи тупроқларнинг унумдорлигини ва уларнинг физик-кимёвий, биологик хусусиятларнинг ўзгаришига олиб келувчи зонал-иқлим шароитлари ва антропоген фаолият билан боғлиқ бўлган эволюцион жараёнларни аниқлаш, муайян қизиқиш ва долзарблик касб этади.

Марказий Осиё ўзининг табиий-географик, шу жумладан тупроқ-иқлим шароити ва ландшафтлари билан Евросиёнинг бошқа минтақаларидан кескин фарқ қилади. Осиёнинг бу минтақасининг бундай хилда ажралиши, энг авваломбор, унинг географик муҳитининг ранг-баранглигида, мураккаб тектоник, геологик ва рельеф тузилишида, иқлим, тупроқ, ўсимликлик шароитларининг тез-тез масофада ўзгариб туришида ҳамда инсон фаолияти таъсирида ерларни ўзлаштириш ишларида намоён бўлади. Марказий Осиё табиатининг бундай тарзда ўзгариши бир томондан табиий-антропоген омилларга боғлиқ бўлса, иккинчи томондан Орол денгизи фожиаси билан бевосита боғлиқдир. Шу икки бош омиллар таъсирида тупроқ пайдо бўлиш жараёнлари, уларнинг жойларда ривожланиш қонуниятларини чуқурроқ ўрганиш, таҳлил қилиш асосида тупроқ ресурсларидан оқилона фойдаланиш, унумдорлигини ошириш, экин, яйлов, пичанзор ва ўрмонзорларнинг маҳсулдорлигини кўпайтириш.

Тупроқ табиий-антропоген ландшафтларнинг асосий қисми. У инсон ҳаёти учун энг муҳим муҳит ва манба, унинг фаолият этадиган асосий майдони. Қисқа тарихий йиллар ва асрлар давомида одамлар тупроқ ва ўсимликларни ўзлаштириш ва ўзгаштириши билан бир қаторда, жуда йирик саноат корхоналари, сув объектлари ва иншоотларини барпо қилдилар. Инсонлар

томонидан олиб борилган бу ишлар, минтақага хос ва мос бўлган табиий қонуниятларни чуқурроқ ўрганилмаганлиги ва таҳлил қилинмаганлиги натижасида айрим ҳудудлар орасида фожиали ҳодисалар яъни, Орол денгизи фожиаси, тупроқ шўрланиши, эрозияси, чўлланиши ва хокозолар кучаймоқда.

НАТИЖА

Ушбу тупроқларни, ранги, механик таркиби ҳамда тўшама жинслар – гипсли ётқизиклар ва оҳакли плиталарнинг яқин жойлашганлиги бўйича кучсиз ифодаланган ўрта қисми билан характерланадиган кучсиз табақалашган профили ажралиб туради.

Оч сур тусли кўнғир тупроқларнинг кимёвий ва механик таркиби

Намуна олиш чуқурлиги, см	Гумус, %	CO ₂ карбонатлар, %	Ca SO ₄ 2H ₂ O, %	Механик таркиби		Сув сўрими, %		
				Физик лой <0,01мм	Шу жумладан гил <0,001мм	куруқ қолдиқ	Cl ⁻	SO ₄ ⁻
0-12	1,08	14,3	0,2	36,8	6,1	0,080	0,004	0,019
13-21	1,12	15,58	0,2	45,7	7,3	0,056	0,004	0,010
21-33	0,88	13,1	0,1	44,2	11,1	0,056	0,006	0,007
34-45	0,84	12,4	0,1	61,6	23,1	0,060	0,004	0,007
46-67	0,64	9,2	0,2	62,4	24,0	0,074	0,013	0,008
68-93	0,55	9,4	0,2	28,9	25,5	0,190	0,071	0,022

Тупроқ пайдо қилувчи она жинслари чангли-кумоқли, оҳак тошлар ва палеоген-неоген ва бўр жинсларидан ташкил топган бўлиб, гумус (0-12 см), ва тупроқ ҳосил қилувчи горизонтларида (34-67 см) учрайди. Унинг миқдори 0,64% дан то 1,08% гача, Бу қатламлардаги корбонатлар 9,2-14,3%, гипс миқдори 0,2%, йирик чанг – 36,8-62,4%, куруқ қолдиқ 0,080-0,074%, Хлор ва сульфат ионлари 0,004; 0,019 мл/кг дан пастга томон тегишлича 0,013 ва 0,008 мл/кг ўзгариб боради.

МУХОКАМА

Демак, инсонлар томонидан бунёд этилган ирригацион тармоқлари таъсирида тупроқларда кечадиган салбий жараёнларни тадқиқот этилиши, иқтисодий шароитларини яхшиланиши билан бевосита боғлиқдир. Ишлаб чиқаришда замонавий самарали агротехнологиялардан фойдаланиши, шунингдек экологик томондан тоза ҳаво, сув ва нормал табиий муҳитга ҳам бевосита боғлиқ. Шундай экан, Қорақалпоғистон республикаларида кенг миқёсда олиб борилаётган қурилиш, бунёдкорлик, саноат, қишлоқ хўжалигида янги суғориш, мелиорация ишларини барпо қилиш, тупроқларнинг унумдорлигини ошириш, экинларнинг ҳосилини кўпайтириш каби назарий ва амалий ишлар йилдан-йилга ортиб бормоқда.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб шуни такидлаш жоизки, тадқиқ қилилинган тупроқ иқлим шароитларида ғаллачилик, чорвачилик йўналишларда деҳқончилик агротадбирларини ишлаб чиқибжорий этиш имконини беради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Аринушкина. Е.В. *Руководство по химическому анализу почв.* М. МГУ.1970. – 488 с.
2. Амонов О., Жўраев А., Мамадиёров Ф., Нурматов И. Шўрланган тупроқ иқлим шароитларида баҳорги юмшоқ бугдойнинг дала унувчанлигига минераллашган ер ости сувларининг таъсири. SCHOLAR scientific journal.(ISSN 2181-4147). Vol.1. No.1(16) (2023): P-147-153.
3. [http://ru.wikipedia.org/wiki/Земельные ресурсы](http://ru.wikipedia.org/wiki/Земельные_ресурсы);
4. <http://kto.guru/geografia//154-sero-burye-pochvy.html>

UDK: 633.854.78;631.816.1

ZIG'IR O'SIMLIGI NAVLARINING DALA UNUVCHANLIGIGA EKISH ME'YORLARINING TA'SIRI

Abirov Zayniddin Zokirovich

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti “yangi navlar agrotexnologiyasi”
laboratoriyasi Stajor-tadqiqotchisi

Mamadiyov Farxod Doniyorovich

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti, “Almashlab ekish va tuproqqa ishlov
berish” laboratoriyasi mudiri

farkhod.mamadiyov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Qashqadaryo viloyati sharoitida zig'ir o'simligi navlarini yetishtirishda ekish me'yorlarining dala unuvchanligiga ta'siri aniqlangan. Zig'ir o'simligining ikkita navida ekish me'yorlarining ortib borishi hisobiga dala unuvchanligining yuqori bo'lishi ta'kidlangan. Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida zig'ir o'simligining “sadaf” va “qora shaxzoda” navlarida ekng yuqori dala unuvchanlik “qora shaxzoda” navida kuzatilganligi aniqlandi.

***Kalit so'zlar:** Zig'ir, o'simlik, nav, urug', ekish me'yor, dala unuvchanlik, tuproq, harorat, yog'in miqdori, iqlim, gektar.*

ANNOTATION

In the article, the impact of planting standards on field fertility in the cultivation of flax varieties in the conditions of Kashkadarya region is determined. In two varieties of flax plant, it was noted that the field fertility was high due to the increase in planting rates. As the main result of the research, it was found that the highest field fertility was observed in the "Black Prince" variety of flax plant "Sadaf" and "Black Prince".

***Keywords:** Flax, plant, variety, seed, sowing rate, field fertility, soil, temperature, rainfall, climate, hectares.*

KIRISH. Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlarida kunjut ekini 5,0 mln gektardan ortiq maydonlarida ekilib, 8,2 mln tonnadan ortiq urug‘ yetishtiriladi. Shundan kunjut yetishtirish bo‘yicha yetakchi mamlakatlarga Tanzaniya, Myanma, Hindiston va Xitoy kiradi. Bulardan Hindistonda kunjut jami 1357,8 ming gektar maydonda yetishtiriladi. Dunyoda kunjutning o‘rtacha hosildorligi 7,0 s/ga ni tashkil etsa, O‘zbekistonda kunjut lalmikor maydonlarda o‘rtacha 5-6 s/ga, sug‘oriladigan maydonlarda 20-22 s/ga urug‘ hosilini beradi¹.

Dunyo mamlakatlarida kunjut ekini urug‘idan olinadigan moy uchun hamda ushbu moydan oziq-ovqat, qandolatchilik mahsulotlari, konserva, margarin va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash imkonini berishi sababli keng yetishtiriladi.

Mamlakatimizda aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jumladan, ekologik toza o‘simlik moyiga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash maqsadida kunjut, kungaboqar, maxsar yetishtirish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoqda. Moyli ekinlarni ko‘paytirish aholi farovonligini yuksaltirish va fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Shuning uchun, Respublikamiz har bir mintaqasining turli tuproq va iqlim sharoitini hisobga olib, kunjutning turli navlaridan moylilik darajasi yuqori bo‘lgan urug‘ yetishtirish pirovardida mamlakatimizda moyning import salohiyatini kamaytirish va arzon hamda sifatli moy mahsulotlari bilan aholini muntazam ravishda ta‘minlash bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda bugungi kunga qadar kunjut ekinidan moylilik darajasi yuqori bo‘lgan serhosil urug‘ yetishtirish agrotexnikasiga doir ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmaganligi hamda kunjut ekinini Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida maqbul ekish muddati va me‘yorlari ishlab chiqilmaganligini hisobga olib, kunjut navlari o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish muddati va me‘yorlarining ta‘sirini o‘rganishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish o‘ta muhim hisoblanadi.

¹ <https://reallib.org/reader?file=1221739>

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kunjut navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan maqbul ekish muddati va me'yorini qo'llash agrotexnologiyasini qo'llash evaziga maqbul dala unuvchanligiga erishiladi. Bunda, hosildorlik va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi. Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilinishi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan asoslanadi.

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Urug'larning unib chiqishiga tuproq hajm og'irligining ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining markaziy tajriba maydonida olib borildi.

Tadqiqot xududi dengiz sathidan 342 metr balandlikda, 33,31318^o shimoliy kenglikda, 65,53187^o sharqiy uzunlikda joylashgan. Tuproq qoplami bo'z tuproqlar sharoiti bo'lib, chirindi va oziqa moddalar bilan kam darajada ta'minlangan. Sizot suv sathi 5-6 metr, iqlimi keskin kontinental, oktyabrda havo harorati +15,1 °C, nisbiy namlik 41,5%, shamol tezligi 2 m/sek, noyabr va yanvar oylarida havo harorati o'rtachasi +6,9 °C, nisbiy namlik 72,7%, shamol tezligi 3 m/sek, fevral va aprel oylarida havo harorati o'rtachasi +11,8 °C, nisbiy namlik 62,7%, shamol tezligi 3 m/sek, may oyida havo harorati +23,9 °C, nisbiy namlik 45,4%, shamol tezligi 4 m/sek.ni tashkil qiladi (G'uzor meteostansiya ma'lumotlari).

Zig'ir o'simligining unib chiqishini aniqlashda umum kabul qilingan uslublarda amalga oshirildi.

NATIJALAR

Kunjut urug'larining dala unuvchanligi harorat, tuproqdagi namlik, urug'larning ekinboplik sifatlari va boshqa omillariga bog'liq holda o'zgaradi. Kunjutdan mo'l va sifatli hosil olishda urug'larni to'liq undirib olish muhim ahamiyatga ega. Ko'plab adabiyotlar ma'lumotlari tahliliga ko'ra, moyli ekinlar urug'larining dala unuvchanligi o'tmishdosh ekinlar, ob-havo sharoiti, ekish muddatini tanlash, ekish chuqurligini belgilash, tuproqda yetarli namlikning bo'lishi, tuproqni ekishga tayyorlash va boshqa omillarga bog'liq.

Tajribada kunjutning «Sadaf» va «Qora Shaxzoda» navlari 1 mln dona/ga me'yorida ekilganda dala unuvchanligi tegishli 59,5; 66,6%, 1,5 mln dona/ga me'yorida ekilganda 66,4; 73,5%, 2 mln dona/ga me'yorida ekilganda, 80,2; 81,9%, 3 mln dona/ga me'yorida ekilganda esa, 79,6; 81,1 foizni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval

Zig'ir navlarining dala unuvchanligi

(JDITI ning tajriba maydoni 2023.y)

Ekin turi	Nav nomi	Ekish me'yor, mln dona/ga	Dala unuvchanligi	
			mln dona/ga	%
Kunjut	Sadaf	1,0	0,5946	59,5
		1,5	0,9954	66,4
		2,0	1,6039	80,2
		3,0	2,3878	79,6
	Qora shaxzoda	1,0	0,6656	66,6
		1,5	1,1026	73,5
		2,0	1,6372	81,9
		3,0	2,4327	81,1

Olib borilgan dala tajribamizda olingan natijalardan shuni ta'kidlab o'tish joizki, kunjut navlarida dala unuvchanligi yuqori bo'lishi ekish usullari va me'yorlariga bog'liq bo'lib, Bizning olib borgan dala tadqiqotimizda kunjutning «Sadaf» va «Qora Shaxzoda» navlari 2 mln dona/ga me'yorida ekilganda dala unuvchanligi maqbul bo'lishi kuzatildi.

MUXOKAMA

Olib borilgan dala tajribamizda olingan natijalardan shuni ta'kidlab o'tish joizki, kunjut navlarida dala unuvchanligi yuqori bo'lishi ekish usullari va me'yorlariga bog'liq bo'lib, Bizning olib borgan dala tadqiqotimizda kunjutning «Sadaf» va «Qora Shaxzoda» navlari 2 mln dona/ga me'yorida ekilganda dala unuvchanligi maqbul bo'lishi kuzatildi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, zig‘ir o‘simligi navlarini yetishtirishda ekish me’yorlarining dala unuvchanligiga ta’siri bo‘lib, ekish me’yorlarining ortib borishi hisobiga dala unuvchanligining yuqori bo‘lishi ta’kidlangan.

Qashqadaryo viloyati sharoitida zig‘ir o‘simligining “sadaf” va “qora shaxzoda” navlari orasida eng yuqori dala unuvchanlik “qora shaxzoda” navida kuzatilganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF 5853-son «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi» Farmoni. [Lex.uz](https://lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni. [Lex.uz](https://lex.uz)
3. Arinushkina. Ye.V. *Rukovodstvo po ximicheskomu analizu pochv.* M. MGU.1970. – 488 s.
4. *Dala tajribalarni olib borish uslublari.* (2007). O‘zPITI.
5. Mamadiyorov F., Ro‘zmonov A., Annaeva N. *Almashlab ekish tizimida o‘simliklar urug‘ining dala unuvchanligiga tuproq zichligining ta’siri.* SCHOLAR scientific journal.(ISSN 2181-4147). Vol.1. No.1(13) (2023): R-107-113.
6. <https://reallib.org/reader?file=1221739>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ERTAK O'QITISH ORQALI BADIY ASARNI TAHLIL QILISHGA O'RGATISH

Chimirova Sevinch

JDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertaklar yordamida badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatish, ertak turlari va ularning o'quvchiga ta'siri haqida yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Ertaklar, badiiy asar tahlili, metodlari, xalq og'zaki ijodi.*

Ma'lumki, hayotimiz turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va to'siqlardan iborat. Masalan, yaxshi-yomon, katta-kichik, achchiq-chuchuk, baland-u past va hokazo. Ularning har biri o'ziga xos xususiyat va ma'noga ega. Bularni anglab farqlay olish esa har bir inson tafakkuri, dunyo qarashi va fikrlash doirasiga bog'liq.

Dunyoqarashning bunday shakllari esa, albatta, badiiy adabiyotlar, asarlar yordamida shakllanadi. Badiiy adabiyotlar va kitoblar o'qishning dastlabki bosqichi bu maktabgacha va boshlang'ich sinf davrlari hisoblanadi. Maktabgacha davrda asosan tinglab tushuniladi. Boshlang'ich sinflarda esa ham o'qib ham eshitib tushunish shakllanadi. Ana shu jarayonni tog'ri tanlash kerak. Bolalar yaxshi tushunishlari uchun asar kichik hajmli, soda aniq va hayotga yaqin bo'lishi lozim. Bolalar uchun mos asarlarga xalq og'zaki ijod namunalari misol bo'la oladi.

Xalq og'zaki ijodi- ota-bobolarimiz aytmoqchi bo'lgan pand nasixatlar, xalqimizning urf odatlari, an'analari, milliyligimiz, yog'rilgan og'zaki ijod namunalari hisoblanadi. Ularning barchasi insonni yaxshilikka, mehnatsevarlikka, to'g'rilikka o'rgatadi. Xalq og'zaki ijodida ertaklar alohida ahamiyatga ega.[1]

[1]. Madayev Omonulla „O'zbek xalq og'zaki ijodi " Toshkent „Mumtoz so'z" 2010 - yil , 228 bet .

Ertaklar-hayot haqiqatiga asoslangan xayot va fantaziya xususiyatlari bilan yo'g'rilgan odamlarga ibrat beruvchi og'zaki ijod namunalari hisoblanadi. O'zbeklar o'rtasida ertaklar varoq, cho'pchak, masala kabi atamalar bilan yuritiladi. Ertaklar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- 1) Og'zaki hikoyaga asoslangan
- 2) Voqealarning ongli tarzda xayoliy uydurmalar orqali aks ettirilishi
- 3) Estetik vazifalarning yetakchilik qilishi
- 4) O'ziga xos badiiy qolib hamda tilga ega bo'lishi (bir bor ekan, bir yoq

ekan kabi maxsus boshlanmalar bilan boshlanib murod-maqсадiga yetibdilar, kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanadi).

Xalq ertaklari mazmunan 3 guruhga bo'linadi .

1. Hayvonlar haqidagi hamda majoziy ertaklar
2. Sehrii fantastik ertaklar
3. Hayotiy maishiy ertaklar[2]

Hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq ma'rifiy g'oyani amalga oshirish maqsadida yaratiladi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda hayvonlarda odamlarning xislatlari bo'ladi. Ya'ni odamlar orasidagi munosabatlarni hayvonlar orqali tushuntiriladi. Bolalarda hayvonlar haqidagi ertaklar yordamida hayvonlar haqidagi daslatbki tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.nMasalan, juda ko'p ertaklarda laylakning tumshug'i Juda uzun bo'lishi, bo'rilarning yirtqich hayvonlar ekanliklari haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bunday ertaklarga "Bo'ri bilan laylak", "Xo'roz bilan tulki", "Suvsanbil" kabilar misol bola oladi. Xususan, "Suvsanbil" ertagi odamlardan bezor bolgan hayvonlar "Suvsambil" degan joyga ketishim tasvirlanadi. Bu ertakda ho'kiz, eshak, xo'roz,arilar, yumronqoziq kabi hayvonlar ishtirok etadi va ahil bolganliklari uchun ertak uchun bo'rilarga ham qarshi tura oladilar. Suvsambilni o'zlariga makon qiladilar. Bu ertak orqali uy hayvonlariga ozor bermaslikni o'rgatish mumkin.

Sehirli afsonaviy ertaklarda asosan insonlarning hayoti ularning tabiatga munosabati, dunyoqarashida yaxshilik va go'zallik haqidagi qarashlari ,umid orzulari ifodalanadi. Sehirli afsonaviy ertaklar o'z nomi bilan fantaziyaga boy ertaklar hisoblanadi. Bunday ertaklarga Hamid Olimjonning "O'zi uchar gilamlar", "Betoqat uchgan otlar", "O't bog'lagan qanotlar", "Bola bop qolgan chollar" kabi ertak tasvirlari aynan sehirli ertak matnlari bog'liq hisoblanadi. [1]

Bolalarning tasavvur doirasi, fantaziyasining boyishida demak sehirli ertaklarning o'rni beqiyos ekan. Xalq ongida insonning biror yaxshiligi, albatta taqdirlanishi lozim. Asar qahramoni semrug'ga, ayiqqa, laylakka ko'rsatgan yordami evaziga mushkullari oson bo'ladi. Uning yordamidan foydalangan hayvonlar keyinchalik sehirli imkoniyatlari bilan qahramon hamrohiga va biror oliyjanob maqsadni qo'lga kiritish vositasiga aylanadi. Ayrim ertaklarda esa adolat aynan mana shu yaxshilik evaziga g'alaba qozonadi. Masalan "Ur toqmoq" ertagida chol o'zi davolagan laylakdan "qaynar xumcha", "ochil dasturxon", "ur to'qmoq" kabi sehirli narsalarni oladi. Lekin do'sti uni aldab, qaynar xumchani ham, ochil dasturxonni ham olib qoladi. Chol olib kelgan keyingi narsani "ur toqmoq"ni olib qolmoqchi bo'lib uni ishlatib ko'radi. Shunda ur toqmoq uni savalab ketadi. Keyin do'sti undan ur to'qmoqni to'xtat deb iltimos qiladi va unga olgan narsalarini qaytarib beradi. Bu ertak orqali o'quvchiga birovning narsasini olmaslikka, har doim rost gapirishga chorlash mumkin.

Maishiy ertaklar. Maishiy ertaklar mazmun jihatidan hayvonlar, sehirli ertaklardan bevosita hayotiy voqea hodisalar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. To'g'ri bu turdagi ertaklarda sehirli fantastik belgilarning mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo umumiy ifoda chegarasi maishiy ertaklarda ancha cheklangan. Chunki ularda xalq, avvalo oddiy odamlar qo'lidan keladigan ishlar yuzasidan fikr yuritiladi. Bevosita real hayot, turmushda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar asos qilib olinadi.

[1] Madayev Omonulla „O'zbek xalq og'zaki ijodi " Toshkent . „Mumtoz so'z" 2010- yil . 228 bet .

[2] . Sherboyeva Nodira Jumayeva "Bolalar adabiyoti nazariyasi fanidan amaliy mashg'ulot" Uslubiy qo'llanma. Jizzax 2003-yil

Ular haqiqiy hayotdagi inson-millat vakili (hox ijobiy hox salbiy bo'lsin) uning imkoniyati darajasidagi jismoniy kuchi, ilmi, aqliga voqealar zaminida tavsif beriladi. Aksariyat hollarda asar qahramonlarining ismlari qayd etilmaydi. Chol-kampir, bir odam, qiz, kambag'al, boy kabi insonlar maskur ertaklarning qahramonlari bo'lib kelaveradi. Ba'zan esa asar qahramoni haqida to'liq ma'lumotlar ham berilishi mumkin. Bunday asarlarga misol qilib "Uch og'a-ini botirlar", "Tohir va Zuhra", "Xurshid oy", "Ayoq", "Zolim podsho" va boshqa ertaklarni misol qilib keltirishimiz mumkin. "Uch-og'a ini" ertagida bir cholning uch o'g'li bo'ladi. Chol o'g'illarini o'z baxtlarini topishlari uchun safarga jo'natadi. Ularga shunday deb tayinlaydi: „To'g'ri bo'ling, bexavotir bo'lasiz, maqtanchoq bo'lmang , uyatda qolmaysz, dangasa bolmang, baxtsiz bo'lmaysiz". O'g'illar safar davomida turli qiyinchiliklarga duch kelsada, bu to'siqlardan cholning tarbiyasi tufayli eson-omon o'tadilar. Ertak oxirida podshohning qizlariga uylanadi va baxtli hayot kechiradilar.[1]

Misol uchun 1-sinf o'qish savodxonligida "Rostgo'y bola" nomli ertakni ko'rib chiqaylik. Bunda o'qituvchi o'quvchiga topshiriq beradi. Har bir o'quvchi o'zi alohida mustaqil o'qish yoki gaplarni ketma-ket o'qiydi. Ertak tugaganidan keyin darsda qatnashmayotgan o'quvchidan ertak mazmuni nimada ekanligini so'raymiz. Bu bilan biz o'quvchilarni darsga diqqat bilan quloq solishlarini nazorat qilgan bo'lamiz. Ertakning mazmuni quyidagicha bo'ladi. Qadim zamonda bir podsho bo'ladi. U doimo tushkun kayfiyatda yurar ekan. Buning sababi esa uning farzandi yo'q ekan. Shunda shoh farzand asrab olmoqchi bo'ladi va shahardagi barcha bolalarga gul urug'larini tarqatib chiqishni buyuradi. Kimning guli chiroyli bo'lsa, shuni farzand qilib olaman debdi. Oradan ancha vaqt o'tgach berilgan gullarni ko'rish uchun podshoh shaharni aylanib chiqibdi. Qancha chiroyli gullar bo'lsa ham ularni tanlamabdi. Bir chekkada turgan bolaning gulini ko'rmoqchi bo'lgan ekan, qarasaki bola gulsiz tuvakni ko'tarib turibdi. Podshoh "seni guling qani?" deb so'ragan ekan. Bola shunda: gul urug'i unib chiqmaganini aytibdi. Podshoh endi sen mening farzandimsan, aslida gul urug'i unib chiqmasligi kerak edi, deb bolani o'ziga farzand qilib asrab olibdi. [3].

[3] T. G'afforova , E. Shodmonov, G. Eshturdiyev . O'qish kitobi .1-sinf uchun darslik „Sharq " Toshkent - 2017 - yil,128bet .

Bu ertak orqali biz o'quvchilarni doimo rost gapirishga o'rgatamiz. O'quvchilarga "podshoh nima uchun doimo tushkun kayfiyatda yurar edi?", "nega podshoh gul o'stirmagan bolani tanladi?" kabi savollar bilan ularning tushunganlik darajasini tekshirib ko'ramiz.

Bolalarning ertaklar yordamida hayotga bo'lgan munosabati, insonlar orasidagi aloqalarini, vatanga bo'lgan, do'stlarga bo'lgan hurmati ortadi. Ularni qadrlashni o'rganadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga va kichik maktab yoshidagi o'quvchilariga ko'p ertaklar aytib berilsa yok o'qitilsa ularning xarakterlarida ijobiy o'zgarishlar tobora ortib boradi. Ertak qahramonlarining yaxshi xislatlarini oladi, yomon xislatlarini olmaslikka harakat qiladi. Ertakdagi salbiy yoki ijobiy qahramonlarini to'g'ri yoki noto'g'ri ishlarini bir-biridan ajratishni o'rganadi. Bu jarayon badiiy asarni tahlil qilishning ilk bosqichi hisoblanadi. Demak ertaklarning tahlili bo'lgan bolalar, biror badiiy asarni tahlil qilish jarayonida ham qiyinchilikka uchramaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madayev Omonulla „Ózbek xalq og'zaki ijodi " Toshkent „Mumtoz so'z" 2010 - yil, 228 bet .
2. Sherboyeva Nodira Jumayeva „Bolalar adabiyoti nazariyasi fanidan amaliy mashg'ulot" Uslubiy qo'llanma. Jizzax 2003-yil
3. T. G'afforova , E. Shodmonov, G. Eshturdiyev . O'qish kitobi .1-sinf uchun darslik,„Sharq " Toshkent - 2017 -yil ,128bet .

THE PROSPECTS OF COOPERATION OF UZBEKISTAN AND FRANCE DEVELOPMENT TENDENCIES

Alikulov Sukhrobjon Kuvondigovich

Student of Webster University Tashkent Branch

***Resume.** The article examines the transformations and future prospects of cooperation between Uzbekistan and France. By utilizing comparative and systematic methods, the study investigates the key areas of collaboration, as well as the shifts in foreign policy concerning trade, economy, and regional matters. The analysis demonstrates that both Uzbekistan and France are actively engaged in constructive and dynamic cooperation, driven by mutual interests. Uzbekistan's interests encompass a wide range of issues, including social modernization, economic partnership, industrial growth, regional cooperation, international engagement, and the utilization of French expertise and investments for overall development. On the other hand, France's interests primarily stem from Uzbekistan's geostrategic position, its abundant natural resources, and the potential of its transportation infrastructure. Furthermore, the study reveals that Uzbekistan, along with the rest of Central Asia, presents a fresh and untapped alternative market and a new platform for French businesses.*

The main keywords associated with this article are Uzbekistan, France, Central Asia, international relations, foreign policy, and bilateral cooperation.

INTRODUCTION

France is a country of rich historical and cultural heritage, socio-political traditions and innovations. He is one of the founders of European integration, a permanent member of the UN Security Council. France is the seventh largest economy in the world and the second in the European Union by GDP per capita. Also, France

is one of the first countries to establish official diplomatic relations with all the former Union countries of Central Asia after they gained independence. However, within the framework of France's general activities in world politics and Uzbekistan's active and effective political and economic relations with global actors such as the Russian Federation, the People's Republic of China, the United States, India, the Republic of Korea, Germany, and Japan, the Uzbek-French cooperation is not only France, but also It may not seem to be a priority and extremely important for Uzbekistan. In particular, the main problem in the evolution of cooperation was determining the priority direction: France believed that the main issue in the development of Uzbekistan should be organizational, administrative and legislative reforms. Uzbekistan considered the main topic of discussion to be investment and trade issues.

This situation made it difficult to achieve full coordination of mutual actions, especially from the first stages of cooperation. However, if we pay attention to the dynamics of the last five years of cooperation, we can see transformations both quantitatively and qualitatively. These transformations make it possible to identify promising areas and directions in Uzbek-French relations.

METHODS AND METHODS OF ANALYSIS.

Systematic, comparative and perspective assessment (forecasting) analytical methods were widely used during the research. Systematic research is used to study a specific topic (process, event, etc.) as a set of interrelated elements / components that study the relationship between the internal processes of the system and the external environment. The method of comparative analysis helps to determine the relationship between two or more phenomena by studying the current and previous state of the research object or comparing its differences and similarities with other objects. The prospective assessment (forecasting) method presents the possibility of assessing the future state of cooperation based on the study of existing data, events or concepts, in our case, the history/evolution of the Uzbek-French cooperation, modern features.

ANALYSIS OF LITERATURE ON THE SUBJECT.

Despite the fact that the topic of this article has not yet been comprehensively and scientifically studied, the dynamics of France's foreign policy, the characteristics, areas, problems and prospects of cooperation with the countries of Central Asia, its interests in the region and competition with other external actors in Central Asia (mainly As part of the European Union), many scientific researches have been carried out in such directions as the historical roots of the cooperation between Uzbekistan and France, the comparative analysis of the political systems of the two countries, and the foreign policy and geopolitics of Uzbekistan. In particular, Jacques Barra, Colin Ferro, Charlotte Wang, F. Bozo, F. Charillon, Armand Colin, Marie Kessler, Jacques Delor, Uber Vedrin, R. Chauvancy, Thomas Gomart, Robert Aldrich on these topics in French and foreign political sciences. , John Connell, Christian Lakesn conducted scientific research.¹ The scientific works of some CIS and Central Asian experts are also important for the regional analysis of Uzbekistan-France relations. Such specialists include S.M. Yun, P.P. Timofeyev, D.B. Nishanov, S.V. Zhukov, O.B. Researches of Reznikova can be highlighted.

The relations between Uzbekistan and France in our country are mainly focused on the general analysis of the foreign policy of Uzbekistan, the issues of the political and legal systems of the two countries, their similarities and differences, and the historical foundations of cooperation and cultural dialogue. Among the researchers, we can single out R.Farmonov, K.Zhorayev, A.Ayrapetov, L.Tereshenko, E.Nuritdinov, M.Rahimov, S.Saidolimov, S.Usmanov and others.

DISCUSSION AND RESULTS

We can divide the current changes in Uzbek-French cooperation into the following directions: 1. In the issue of determining the priority directions of cooperation. The main problem in the evolution of Uzbek-French cooperation was the issue of priority setting: while France believed that the main emphasis should be placed on organizational, administrative and legislative reforms in the development of Uzbekistan, the main topic of negotiation for Uzbekistan were investment and trade

issues. This made it possible to achieve full coordination of mutual actions from the first stages of cooperation.

